

**TURON UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/2025.27.12.Fil.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MURTAZAYEV ELYOR NIZOMIDDINOVICH**

**ROMAN JANRIDA TASODIF MUHITI VA PSIXOLOGIK  
VAZIYATLARNING TIPOLOGIK TASVIRI**  
(Erix Mariya Remark va Shuhrat romanlari misolida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Murtazayev Elyor Nizomiddinovich**

Roman janrida tasodif muhiti va psixologik vaziyatlarning tipologik tasviri  
(Erix Mariya Remark va Shuhrat romanlari misolida) ..... 5

**Murtazaev Elyor Nizomiddinovich**

Typological representation of the atmosphere of chance and psychological  
situations in the novel genre (On the example of the novels of Erich Maria  
Remarque and Shuhrat) ..... 27

**Муртазаев Элёр Низимиддинович**

Типологическое описание атмосферы случайности и психологических  
ситуаций в жанре романа (На примере романов Эриха Марии Ремарка и  
Шухрата) ..... 51

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

List of published works  
Список опубликованных работ ..... 57

**TURON UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD. 03/2025.27.12.Fil.39.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI  
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MURTAZAYEV ELYOR NIZOMIDDINOVICH**

**ROMAN JANRIDA TASODIF MUHITI VA PSIXOLOGIK  
VAZIYATLARNING TIPOLOGIK TASVIRI**  
(Erix Mariya Remark va Shuhrat romanlari misolida)

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Qarshi – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B.2024.2.PhD/Fil4875 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.turon.uz](http://www.turon.uz)) va “ZiyoNet” axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xoliqov Bahodir Aliqulovich**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Nuriddinov Shahobiddin Babayarovich**

filologiya fanlari doktori, dotsent

**Ma’diyeva Adiba Dovudovna**

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

**Yetakchi tashkilot:**

Guliston davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi shahridagi Turon universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.39.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ soat \_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 180100, Qarshi shahar, Nasaf ko‘chasi, 1/14 uy. Tel.: (77) 040-00-25; faks: (75) 220-00-25 e-mail: turonuniversiteti.uz.)

Dissertatsiya bilan Turon universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin ( \_\_\_ raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 180100, Qarshi shahar, Nasaf ko‘chasi, 1/14 uy. Tel.: (77) 040-00-25).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2026-yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**N.N.Shodmonov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,  
filologiya fanlari doktori, professor

**I.B.Nurmurotov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy  
kotibi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa  
doktori, dotsent

**M.D.Daniyeva**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon romanchiligida urush voqealari nafaqat tarixiy hodisani qayta ifodalash, balki insonning ruhiy olamidagi iztiroblar, ma'naviy sinovlar va taqdir burilishlarini yoritish uchun keng estetik imkoniyat yaratdi. Ayniqsa, tasodifiy hodisalar va ularning qahramon psixologiyasiga ta'siri urush tasvirlangan romanlar poetikasida muhim badiiy kategoriya darajasiga ko'tarildi. Tasodifning syujet tugunlaridagi roli, voqealar rivojidadagi kutilmagan burilishlar hamda fojiaiy yechimlar orqali inson ruhiyatini ochish jahon adabiyotida umumiy metodologik va tipologik mezonlarga aylandi.

Dunyo adabiyotida urush mavzusi insoniyat tarixining eng fojiaiy sahifalaridan biri sifatida talqin etilib, unda tasodifiy vaziyatlar alohida badiiy vosita o'laroq namoyon bo'ladi. Xususan, nemis romanlarida tasodif inson taqdirining beqarorligi va urushdan keyingi jamiyatning murakkab ruhiy manzarasini ifodalovchi adabiy-falsafiy kategoriya darajasiga ko'tariladi. Ayniqsa, Erix Mariya Remark asarlarida tasodif hayotiy noaniqlik va insonning taqdir oldidagi ojizligi chuqur badiiy ifoda etiladi. "Uch og'ayni" romani syujetida tasodif kategoriyasi urushdan keyingi avlodning psixologik holatini tasvirlash mexanizmi sifatida qo'llanganini tadqiq qilish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek romanchiligida urush mavzusi milliy tarixiy haqiqat va inson taqdirining badiiy umumlashtirilgan ifodasi tarzida shakllangan. Bu romanlarda tasodifiy hodisalar syujetni harakatlantiruvchi asosiy omillardan biri bo'lib, qahramon hayotida kutilmagan burilishlar orqali uning ma'naviy-ruhiy dunyosini ochishga xizmat qilgan. Shuhratning "Oltin zanglamas" romani ayni jihatga ko'ra, ana shu badiiy an'anaga mansubdir. Roman syujetdagi tasodifiy voqealar inson hayoti va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqligini o'rganish, shuningdek, psixologik vaziyatlar tasviri hamda qahramon xarakteri asosida muallif konsepsiyalarini belgilashga doir kuzatishlar olib borish ehtiyoji mavjud. Zero, "adabiyot, san'at va madaniyat yashasa, millat va xalq, butun insoniyat bezavol yashaydi"<sup>1</sup> degan fikr bejiz aytilmagan. Chunki adabiyot insonning ruhiy va ma'naviy olamini shakllantiruvchi, tarixiy xotirani saqlovchi hamda millatni birlashtiruvchi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Urush mavzusiga bag'ishlangan o'zbek va nemis romanlari ham buni yaqqol ko'rsatadi. Shu bois, nemis va o'zbek urush romanlarida tasodifiylik umumiy jihatdan qahramon ruhiyatini ochish va davrning ma'naviy-madaniy ziddiyatlarini yoritishda tipologik uyg'unlik kasb etadi. Mazkur jihat tadqiqotimiz dolzarbligini ta'minlab, bugungi milliy adabiyotshunosligimizdagi ilmiy zaruratni belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, 2019-yil 8-avgustdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil 4-avgust.

ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, shuningdek, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-sonli “Ta‘lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 3-avgustdagi O‘zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasi, 2020-yil 20-mayda Toshkent shahridagi Adiblar xiyoboniga tashrifi chog‘ida adabiyotning ta‘sir kuchini oshirish bo‘yicha topshiriqlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** Adabiyotshunoslikda urush mavzusi, tasodifiylik, syujetdagi keskin burilish va uning psixologizm bilan uyg‘unlashuvi jahon adabiyotshunoslik ilmida Aristoteldan boshlab, L.I.Timofeyev, V.Xalizev, Y.Borev, M.M.Baxtin, G.N.Pospelov, N.G.Chernishevskiy, A.A.Potebnya, M.Matveyev, T.Riggs, A.Vernon<sup>2</sup> kabi olimlarning adabiyot nazariyasi va adabiyotshunoslikka oid ishlarida tadqiq qilingan.

Nemis adabiyotshunosligida urush fenomeni, xususan, Remark ijodidagi XX asr odamining ekzistensial va ruhiy holati H.Ryuter, G.Lukach, R.Marton, T.Shnyder, B.Merdochlar<sup>3</sup> tadqiqotlarida nazariy jihatdan yoritiladi.

---

<sup>2</sup>Арасту. Поэтика. Ахлоки кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2024; Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987; Словарь литературоведческих терминов. Редакторы-составители Л.И.Тимофеев и С.В.Тураев. – Москва: Просвещение, 1974; Лихачев Д.С. Текстология: На материалах русской литературы X-XVII веков. – Л., 1983; Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1994; Боров Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981; Шелли П.Б. Фарб шамоли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014; Пospelov Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978; Чернышевский Н.Г. Статьи по эстетике. – М., 1938; Пotebnya А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва: 1988; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1979; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979; Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Академнашр, 2015; Browne L. Coincidence in Fiction and Literature. Berlin, 1996; Puskar J. Here is an informal briefing on chance in literature. 1998; Georg Lukács. The Theory of The Novel. The MIT Press Cambridge, Massachusetts. 1977; Матвеев М. А. Принципы формирования поэтики ранних произведений Э.М. Ремарка. Дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2015; Riggs T. The Literature of War. – Detroit: St. James, 2012; Vernon A. War. Critical Insights. – Ipswich: Salem, 2013.

<sup>3</sup> Rüter H. Erich Maria Remarque: Im Westen nichts Neues. Ein Bestseller der Kriegsliteratur im Kontext. – Paderborn: Schöningh, 1980; Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: Rodopi, 1989; Marton R. Mein Freund Boni: Erinnerungen an Erich Maria Remarque. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1993. Schneider T. Die andere Liebe. Anmerkungen zu den Erzählungen und Essays von Erich Maria Remarque // Herbstfahrt eines Phantasten: Erzählungen und Essays, edited by Thomas F. Schneider. – Cologne: Kiepenheuer und Witsch, 2001; Murdoch B. The novels of Erich Maria Remarque: sparks of life. – Rochester: Camden House, 2006.

O‘zbek adabiyotshunosligida ayni muammolarga qaratilgan nazariy qaydlarni A.Fitrat, I.Sulton, B.Sarimsoqov, D.Quronov, Q.Yo‘ldosh, U.Jo‘raqulov, U.O‘ljaboyev, H.Karimov, I.Yoqubov, U.Hamdami va boshqalar<sup>4</sup> ishlarida uchramiz. Shuningdek, Shuhrat va Erix Mariya Remark ijodi, ularning romanlariga oid tadqiqot ishlarda urush va uning asoratlari, davr ruhi va psixologik holatlar tahlil qilinganini kuzatish mumkin. Jumladan, S.Mirvaliyev, H.Yoqubov, M.Qo‘shjonov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, I.G‘afurov, D.To‘rayev, Y.Solijonov, Q.Qahramonov, Z.Pardayeva, A.Azimov, Sh.Doniyarova, M.Yadgarova, N.Soatovalar<sup>5</sup> Shuhrat asarlarini tadqiq qilgan bo‘lsalar, E.M.Remark ijodi esa R.Qo‘chqor, Y.Egamova, Sh.Karimov, S.Saidmurodov, S.Olimjonov kabilarning ilmiy maqolalari, OAVdagi chiqishlarida ma‘lum ma‘noda yoritilgan<sup>6</sup>. Ammo o‘zbek adabiyotshunosligida Shuhrat va Remark romanlarida tasodif muhiti va psixologik vaziyatlar uyg‘unligi tipologik jihatdan maxsus o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari

---

<sup>4</sup> Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Танланган асарлар. IV жилд. – Тошкент: Маънавият, 2006; Sulton I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005; Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2022; Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013; Yo‘ldosh Q. E‘nik s‘uz. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006; Jo‘raqulov U. Nazariy poeziya masalalari: Muallif. Janr. Xronotop. – Toshkent: F.Gulom NMIU, 2015; O‘ljaboyev U. O‘zbek xarbiy prozasida xarakter yaratishning ba‘zi masalalari. – Toshkent: Fan, 1989; Karimov X. Kechagi o‘zbek nasrida ha‘t haqiqati va inson konsepsiyasi (70-80 yillar). Monografiya. – T.: Yangi nashr, 2018; Yoqubov I. Mustaqillik davri o‘zbek romanlari poetikasi. – Toshkent: Nurafshon business, 2021; Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. / O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Akademnashr, 2020; Gulabaeva P. Xudoyberdi To‘xtaboyev romanlarida badiiy psixologizm: Filol. fan. b. fals. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2019; Asadov M. Jahon va o‘zbek nasrida “e‘lizlik” motivining modernistik talqini (A.Kamyo, X.Dustmuhammad, U.Hamdam nasri misolida). Filol. fan. b. fals. dok. diss... – Toshkent, 2022; Ismonova I. Hozirgi o‘zbek romanlarida bola obrazining poetik funksiyasi. Filol. fan. b. fals. dok. diss.... – Toshkent, 2025.

<sup>5</sup> Mirvaliev S. O‘zbek romani. – Toshkent: Fan, 1969; Yoqubov X. Tipik sharoit va tipik xarakter. // Sharq yulduzi, 1969, № 3. 1-son; Kujonov M. Badiiyat konulyatlari. Tanlangan asarlar: Adabiy-tanqidii maqolalar, esselar, hotiralar. – Toshkent: Sharq, 2018; Karimov N. XX asr o‘zbek adabiyoti tarakkiyatining uzi xos xususiyatlari va millii istiqloq mafkurasi. Filol. fan. doktori diss... avtoref. – Toshkent: 1993; Karimov N. Davr Shuhrat taqdirida. // Jahon adabiyoti, 2018 yil, 4-son; Sharafiddinov O. Shuhrat ijodi haqida fikrlar. Esh leninchi gazetasi. – Toshkent, 1971, 21 may. № 8; Normatov U. Nasrimiz tamoyillari. – Toshkent: “Adabiyot va san‘at”, 1978; Shuhrat. Adabiy portret. – Toshkent: Faqur Gulom, 1969; Faqurov I. Adabiyot dunyasi. // Manq latorat. Shuhrat: haqg‘i adib va inson. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2022; To‘rayev D. Hozirgi o‘zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 1994; Davr va ijod masulyati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004; Solijonov I. XX asrning 80-90-yillari o‘zbek nasrida badiiy nutk poetikasi. Filol. fan. dok. diss... avtoref. – Toshkent, 2002; Qahramonov Q. “Oltin zanglamas” romani davr va шахs talqini. // Sharq yulduzi, 2003 yil. 3-son; Pardayeva Z. Hozirgi o‘zbek romanlarining tarakkiyat tamoyillari. Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2003; Badiiy estetik tafakkur rivoji va o‘zbek romanчилиги. Adabiy tanqidii maqolalar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2002; O‘zbek romani poetikasi. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomiдаги халқ мероси нашриёти, 2003; Azimov A. Shuhrat ijodida ijodii qahramon problemasi. Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2003; Doniyarova Sh. Istiqloq davri o‘zbek romanlarida millii ruh va qahramon muammosi. Filol. fan. dok. diss... – Toshkent, 2012; Shuhrat zamondoshlari hotirasida. – Toshkent: Faqur Gulom, 2018; Yadgarova M. Shuhratning “Oltin zanglamas” romani ijodii biografiasii: tarixiiлик va badiiylik. Filol.f.b.f. doktori (PhD) diss... – Toshkent, 2021; Soatova N. Shuhrat adabiy merosida anghana va mahorat. – Toshkent, 2022.

<sup>6</sup> Qo‘chqor P. Mavjudlik muammosi. Tafakkur jurnali, 2014, 4-son; Y.Egamova, D.Ayurova. Remark uslubi va uni tarjimada berish. <https://kh-davron.uz/kutubxona>; Saidmurodov S. Tinchlik nomi ila. Remarkning “Lissabondagi tun” romanining o‘zbekcha nashriga kirish maqola. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016; Olimjonov S. Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” romanida ifoda va talqin. FarDU ilmiy xabarlar. 2022-yil, 5-son; Olimjonov S. Erix Mariya Remark va Ulug‘bek Hamdam romanlarida uslub masalasi. Uza jurnali, 2023 yil, 9-son.

rejasiga muvofiq “Jahon va o‘zbek adabiyotini qiyosiy-tipologik o‘rganishning umumnazariy muammolari” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** nemis yozuvchisi Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” va o‘zbek adibi Shuhratning “Oltin zanglamas” romanlaridagi tasodifiy vaziyatlar va psixologik holatlarni qiyosiy asosda chuqur tahlil qilish, ikki adib ijodida namoyon bo‘ladigan umumiylik va individualikka xos tipologik jihatlarni aniqlagan holda ularning estetik-falsafiy mohiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

o‘zbek va nemis adabiyotida urush mavzusidagi romanlarning tematik-kompozitsion qurilishini ilmiy tasniflash, syujet dinamikasi va obrazlar tizimini badiiy-estetik o‘ziga xosliklarini nazariy asosda yoritish;

urush mavzusida yaratilgan romanlarda tasodif kategoriyasining badiiy vazifasini aniqlash, syujet tugunlari, voqealar rivoji va yechim jarayonida tasodifiy hodisalarning rolini ilmiy jihatdan ochib berish;

Erix Mariya Remark va Shuhrat romanlari misolida tasodifiy hodisalar va psixologik holatlarning o‘zaro uyg‘unligini tahlil qilish, ular orqali qahramon xarakterining yoritilishi hamda mualliflik pozitsiyasining ifodalanish xususiyatlarini tadqiq etish;

“Oltin zanglamas”, “Uch og‘ayni” romanlarining syujet va obrazlar tizimida tasodifiy vaziyatlar bilan bog‘liq psixologik tasvirlarning uslubiy poetikasini, badiiy nutq komponentlarining mazkur jarayondagi ahamiyatini aniqlash;

urush romanlarida tasodifiylik va psixologizm uyg‘unligini tipologik jihatdan ochib berish, ular orqali adabiy tafakkurda shaxs va jamiyat, tarixiy falokat va insoniy sobitlik o‘rtasidagi munosabatlarga doir nazariy xulosalar chiqarish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” va Shuhratning “Oltin zanglamas” romanlari tanlandi. Shuningdek, tahlil jarayonida ehtiyojga ko‘ra mualliflarning boshqa asarlariga ham murojaat qilindi.

**Tadqiqot predmetini** E.M.Remark va Shuhrat romanlaridagi tasodif muhiti hamda psixologik vaziyatlarning tipologik xususiyatlari qilish tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, biografik, psixologik va struktur tahlil usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek va nemis adabiyotida urush mavzusiga oid romanlarning tematik-kompozitsion qurilishi tasnif qilinib, syujet dinamikasi va obrazlar tizimining o‘ziga xos badiiy-estetik belgilari nazariy jihatdan umumlashtirilgan hamda ularning adabiy jarayon taraqqiyotidagi o‘rni aniqlangan;

urush mavzusidagi romanlarda tasodif omili syujet tugunlarini shakllantirish, voqealar rivojini ta‘minlash hamda badiiy yechimga erishishda yetakchi estetik-dramatik kuch sifatida xizmat qilishi ochib berilgan; shuningdek, tasodiflar zaminida yashirin zarurat omili mavjudligi va uning ilohiy taqdir hukmi sifatidagi talqini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan;

Remark va Shuhrat romanlarida tasodifiy vaziyatlar bilan psixologik holatlarning o‘zaro uyg‘unligi qahramonlarning ichki olamini ochishda va mualliflarning badiiy-estetik qarashlarini ifodalashda yetakchi badiiy vosita bo‘lib xizmat qilishi dalillangan;

“Oltin zanglamas” va “Uch og‘ayni” romanlarida tasodif omili bilan bog‘liq psixologik tasvirlarning uslubiy poetikasi tizimlashtirilgan hamda badiiy nutq komponentlarining mazkur tasvirlarni yaratishdagi o‘rni va funksional ahamiyati ochib berilgan;

urush romanlarida tasodifiylik va psixologizm uyg‘unligining umumiy va milliy-tipologik jihatlari aniqlanib, ular orqali badiiy tafakkurda shaxs va jamiyat, tarixiy falokat va insoniy sobitlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar nazariy xulosalarda asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

nemis va o‘zbek romanchiligi, xususan, urush mavzusidagi romanlarni qiyosiy tahlil qilish orqali dissertatsiyada olingan natijalar qiyosiy adabiyotshunoslik, jahon adabiyoti, adabiy aloqalar kabi muammolarga bag‘ishlangan monografik tadqiqotlar tayyorlashda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi dalillangan. Shuningdek, bu natijalar o‘quv va metodik qo‘llanmalar ishlab chiqishda ham qo‘llanilishi mumkinligi isbotlangan;

dissertatsiyaning nazariy bazasini shakllantirishda qiyosiy-tipologik metod asosida nemis yozuvchisi Erix Mariya Remark hamda o‘zbek adibi Shuhrat romanlari adabiy manba sifatida tadqiq etilib, ular haqidagi mavjud adabiyotshunoslikka oid qarashlar tizimlashtirilgan va ilmiy tasnif asosida umumlashtirilgan. “Uch og‘ayni” va “Oltin zanglamas” romanlarida tasodifiy vaziyatlar va psixologik holatlarning badiiy talqini qiyosiy tahlil qilinib, nazariy umumlashmalar hamda yangi ilmiy xulosalar chiqarilgan. Ushbu natijalar jahon adabiyoti, o‘zbek adabiyotshunosligi, qiyosiy adabiyotshunoslik, hozirgi adabiy jarayon va badiiy tahlil asoslari kabi fanlardan qo‘shimcha metodologik manba sifatida amaliy ahamiyat kasb etishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot ishida nazariy ma‘lumotlarni berishda aniq ilmiy manbalarga asoslanilganligi, tadqiqotning mavjud adabiyotshunoslik nazariyalariga muvofiqligi, tahlilga tortilgan romanlar ilmiy metodlar asosida tadqiq qilinganligi hamda tahlillar ishonchliligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, adabiyotshunoslikning ilmiy konsepsiyalari asosida o‘rganilgani bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari adabiy jarayonni tahlil etishning zamonaviy tamoyillariga tayangan holda shakllantirilgani, o‘rganilgan materiallarning ilmiy asosda tasnif qilingani hamda ilgari surilgan nazariy xulosalar bilan belgilanadi. Ishda qo‘llangan poetik ifoda shakllarining yangiligi, zamonaviy qiyosiy yondashuvlarning dolzarbligi va tasodifiylik hamda psixologizmning tipologik talqiniga doir tahlillar yozuvchining badiiy laboratoriyasini boyituvchi nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Tadqiqotda olingan natijalar qiyosiy adabiyotshunoslik, adabiy aloqalar va adabiy ta’sir muammolariga bag‘ishlangan monografik ishlar yaratishda, tarjimashunoslik hamda jahon adabiyotini o‘rganishda qo‘l keladi. Shuningdek, urush romanchiligi, tasodif va psixologik talqin masalalari bo‘yicha tipologik izohlarni shakllantirish, oliy ta’lim muassasalari filologiya yo‘nalishida darslik, o‘quv va metodik qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanish imkoniyatini beradi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O‘zbek va nemis adabiyotida urush mavzusiga oid romanlarning syujet va kompozitsiyasi, tasodifiy vaziyatlar hamda obrazlar psixologiyasi tipologiyasini tadqiq qilish asosida:

urush romanlarida tasodifiylik va psixologizm uyg‘unligining umumiy va milliy-tipologik jihatlari aniqlangani, ular orqali badiiy tafakkurda shaxs va jamiyat, tarixiy falokat va insoniy sobitlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar haqidagi tahlillar va nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2019-2021-yillarga mo‘ljallangan II-OT-2019-42 raqamli “O‘zbek va ingliz tillarining elektron (inson qiyofasi, fe‘l-atvori, tabiati va milliy timsollar tasviri) poetik lug‘atini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani bajarishda foydalanilgan. (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 26-fevraldagi 04/1-1134-son ma‘lumotnomasi) Natijada o‘zbek romanlaridagi xarakter va portret badiiyati tasodif muhitidagi qahramonning psixologik vaziyatini tasvirlashdagi ahamiyatiga oid ilmiy xulosalar elektron platforma materiallarini boyitishga xizmat qilgan;

Remark va Shuhrat romanlarida tasodifiy vaziyatlar bilan psixologik holatlarning o‘zaro uyg‘unlashuvi qiyosiy tahlil etilganligi, bu jihatlar qahramonlarning ichki olamini ochishda va mualliflarning badiiy-estetik qarashlarini ifodalashiga doir ilmiy-xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan F3-201912258-raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihaning 2021-2023-yillarga mo‘ljallangan ishlarni bajarishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 7-noyabrdagi 04/1-5381-son ma‘lumotnomasi). Natijada urush haqidagi romanlarda tasodifning badiiy funksiyasi alohida tadqiq qilinib, “Oltin zanglamas” va “Uch og‘ayni” romanlarida tasodifiylik bilan bog‘liq psixologik tasvirlarning uslubiy poetikasi maxsus tahlil qilinib, badiiy nutq komponentlarining mazkur jarayondagi o‘rni va funksional ahamiyati, shu bilan birga, tasodiflar zaminida yashirin zarurat omili mavjudligi va uning ilohiy taqdir hukmi sifatidagi talqini nazariy konsepsiya tarzida asoslanganiga doir ilmiy materiallar tayyorlashga asos bo‘lgan;

poetik ifoda shakllarining yangiligi, zamonaviy qiyosiy yondashuvlarning dolzarbligi va tasodifiylik hamda psixologizmning tipologik talqiniga doir tahlillar yozuvchining badiiy laboratoriyasini boyituvchi nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2024-yillarga mo‘ljallangan IL-402104209 raqamli “Axborot qidiruv tizimlari (Google, Yandex, Google translate) uchun avtomatik ishlov berish vositasi – o‘zbek tilining morfoleksikoni va morfologik analizatori dasturiy vositasini yaratish” nomli innovatsion loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 8-oktabr, 01/4-4761-son ma‘lumotnomasi). Dissertatsiya natijalaridan foydalanish tufayli innovatsion yondashuvlar ishlab chiqildi, nazariy qarashlar kengaydi va amaliy qo‘llanmalar samaradorligi oshirildi. Natijada qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik fanlari bilan amaliy dasturiy ta‘minot o‘rtasidagi integratsiya yanada mustahkamlandi.

o‘zbek va nemis adabiyotida urush mavzusiga bag‘ishlangan romanlar tematik-kompozitsion qurilishi, syujet dinamikasi va obrazlar tizimi bilan farqlanishi, ularning

badiiy-estetik mohiyati bir nuqtada – inson taqdiri va tarixiy falokat o‘rtasidagi murakkab ziddiyatlarni yoritishda uyg‘unlashuvi, o‘zbek romanlarida xalq fidoyiligi, ijtimoiy tafovutlar, sabr-toqat va tarixiy adolatga intilish motivlarining ilgari surilishiga xizmat qilishi; nemis romanlarida esa urush fenomeni ruhiy tanazzul, axloqiy tubanlashuv va shaxsning jamiyatdan begonalashuvi orqali estetik-falsafiy talqin darajasiga ko‘tarilganligi kabi ilmiy xulosalardan “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Tarix maydoni” ko‘rsatuvida foydalanilgan (O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Ma’rifat” ijodiy birlashmasi” davlat muassasasining 2025-yil 18-oktabrdagi 15-33/766-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv mazmuni tarixiy faktlarni oddiy xronologik bayon etish doirasidan chiqib, urush hodisasining adabiy-badiiy, falsafiy va madaniy talqinlarini qamrab olgan kompleks ilmiy-ma’rifiy diskursga aylanishiga, shuningdek, tarixiy tafakkurni adabiy-estetik tahlil bilan boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, shundan, 8 tasi respublika hamda 2 tasi xorijdagi ilmiy jurnallarida nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 138 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan; muammoning o‘rganilganlik darajasi, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti belgilangan, uning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishiga mosligi ko‘rsatilgan; tadqiqot usullari, ilmiy yangiligi va olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati dalillangan, natijalarni amaliyotga joriy qilish va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar bayon etilgan.

Dissertatsiyaning “**Romanchilik tarixida urush va tasodif kategoriyalarining badiiy vazifasi**” nomli birinchi bobi, ikki fasldan tashkil topgan. Birinchi fasl “*O‘zbek va nemis nasrida urush mavzusidagi romanlar va ularning ilmiy tasnifi*” deb nomlanadi.

Urush fenomeni insoniyat tarixining qadimiy davrlaridanoq san’at va adabiyotda yetakchi mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Qadimgi Sharq eposlari va antik yunon dostonlarida nafaqat buyuk janglar va qahramonliklar tasvirlanadi, balki jamiyatning urush haqidagi tasavvurlari, inson va taqdir o‘rtasidagi murakkab munosabatlari aks ettiriladi. Xususan, “Bilgamish”, “Mahobhorat”, “Ramayana”, “Iliada”, “Odisseya” kabi monumental asarlar hamda yunon tragediyalari syujeti katta muhorabalar, jiddiy ziddiyatlar va keskin kurashlar asosiga qurilib, ularda urushning estetik-falsafiy ma’no-mohiyati yoritiladi.

Urush motivi o'rta asr Yevropa adabiyotida diniy va ritsarlik romanlari orqali badiiy ifodasini topgan. "Qirol Artur va dumaloq stol" turkumidagi asarlarda ritsarlarning urushdagi jasorati, ayolga bo'lgan sadoqat bilan bog'liq holda tasvirlanadi. XIV-XVI asrlarga kelib Yevropa adabiyotida urush fenomeniga nisbatan yangicha qarashlar yuzaga keldi. Xususan, Uyg'onish davri adabiyotida urush motivi tanqidiy-estetik nuqtayi-nazardan qayta idrok etilib, o'ziga xos badiiy talqinini topdi. Migel de Servantesning "Don Kixot" romani ritsarlik romanlarini fosh etish, ularning real voqelikdan yiroq ekannini ko'rsatish maqsadida yozilgan hamda realistik romanchilikka asos bo'lgan. XVIII-XIX asrlar adabiyotida, xususan, Jorj Bayron, Lev Tolstoy, Prosper Merime ijodida urush gumanistik nuqtayi nazardan tahlil qilingan. Bu borada L.Tolstoyning "Urush va tinchlik" romanida urush motivi faqat tarixiy hodisa emas, balki inson ongi va axloqiy tanlovining eng og'ir sinovi sifatida talqin etiladi. Tolstoyshunos olim V.B.Shklovskiyning ta'kidlashicha: "Romandagi urush falsafasi ham "Urush va tinchlik"ka ijod jarayonida singdiriladi. Turli davrlarda uning ahamiyati turlicha namoyon bo'ladi."<sup>7</sup>

Hozirgi adabiy jarayonda urush fenomenini badiiy idrok etishda ikki xil tasvir yetakchilik qiladi. Birinchi tasvirda makromiqyosdagi voqelik, ya'ni jangovar sahnalar, harbiy yurishlar, qahramonlik motivlari ustuvor sanalsa; ikkinchi talqinda urush sharoitida yashayotgan insonning ichki olami, ruhiy evrilishlari, qo'rquv, yolg'izlik va ma'naviy iztirob kabi murakkab holatlarining chuqur psixologik tahliliga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Bu borada E.M.Remark, E.Heminguey, Oybek, Shuhrat, O'.Hoshimovlar har ikki tasvirni o'zaro uyg'unlashtirgan holda urush manzaralari fonida askarning psixologik portretini yaratishga erishganlar.

Adabiyotshunoslida qiyosiy-tarixiy metod urush konseptini makon va zamon kesimida tadqiq etishga, badiiy shakl va janrlar tadrijini ochib berishga keng imkon yaratadi. Mazkur yondashuv asosida o'zbek va nemis adabiyotidagi urush mavzusiga bag'ishlangan romanlar tahlilga tortilganda, ularni muayyan taraqqiyot bosqichlariga ajratish va tizimli ravishda ilmiy tasniflash mumkin bo'ladi.

XX-asr o'zbek adabiyotida urush mavzusi ijtimoiy-siyosiy jihatdan ko'p qirrali adabiy hodisa sifatida quyidagi tarixiy-xronologik bosqichlarda taraqqiy etdi:

1. *Sho'ro davrigacha bo'lgan milliy-tarixiy jarayon kontekstdagi romanlar.*
2. *Bevosita front voqealari tasvirlangan romanlar.*
3. *Front orti mashaqqatlari, urush fonidagi xalq hayoti aks etgan romanlar.*
4. *Mustaqillik davrida yaratilgan post-totalitar urush nasri.*

Sho'ro davrigacha bo'lgan tarixiy jarayonni aks ettirgan romanlar milliy o'zlik va ozodlik konsepsiyasi ustuvorlik qiladi. Bunga yorqin misol tariqasida Oybekning "Qutlug' qon" romanida Chor Rossiyasi mustamlakachiligi sharoitida xalqning erkinlik uchun kurashi, ijtimoiy tabaqalanish va milliy uyg'onish badiiy talqin etiladi. Ikkinchi jahon urushi davrida bevosita front hayoti tasvirlangan romanlar vujudga keldi. Urush haqiqati va askar taqdirini muallifning shaxsiy front tajribasi asosida realistik yoritish tamoyili Shuhratning "Shinelli yillar" hamda Oybekning "Quyosh qoraymas" romanlarida yuksak badiiy ifodasini topgan. Urush fonidagi xalq hayoti va front orti mashaqqatlari tasvirlangan romanlar ham muhim yo'nalishni tashkil etadi.

---

<sup>7</sup> Shklovskiy V.B. Lev Tolstoy. Biografik roman. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 352.

Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, Shuhratning “Oltin zanglamas” romani, Rahmat Fayziyning “Hazrati inson” romanlarida esa urush yillari va undan keyingi davrda begunoh shaxslarning qatag‘on qilinishi, axloqiy zulm va shaxsiy fojialar ochib beriladi. Mustaqillik davrida shakllangan post-totalitar harbiy nasrida urush mafkuraviy hodisa emas, balki insoniy va ruhiy fojia sifatida talqin qilinadi. O‘tkir Hoshimov, Tog‘ay Murod, Murod Muhammad Do‘st, Omon Muxtor, Nazar Eshonqul va boshqalar ijodida urush xotirasi shaxsiy iztirob, psixologik tahlil va axloqiy mas‘uliyat nuqtayi nazaridan yoritiladi.

Nemis yozuvchilari urushni faqat tashqi voqelik, ya‘ni jangovar sahnalar, strategik harakatlar, g‘alaba va mag‘lubiyatlar kontekstida emas, balki individning ichki inqirozi, axloqiy zaiflashuvi, ijtimoiy begonalashuv, befarqlik va ma‘naviy tanazzul holatida aks ettirishga intildilar. Bu yondashuv urushning metafizik mohiyatini ochish, ya‘ni uni insoniyatga xos mohiyat – erkinlik, mas‘uliyat, hayotning ma‘nosi, o‘limga nisbatan munosabat kabi ekzistensial tushunchalar bilan bog‘lashga xizmat qiladi. Olmon nosirlari ijodida urush mavzusining bunday ko‘lamda talqin etilishi, albatta, bir qator muhim nazariy omillar bilan bog‘liq. *Birinchi*dan, bu ijodkorlarning ko‘pchiligi urushda bevosita ishtirok etgan yoki uning ijtimoiy-psixologik oqibatlarini boshdan kechirgan shaxslardir (masalan, Erix Mariya Remark, Wolfgang Borxert, Haynrix Byoll va boshqalar). *Ikkinchi*dan, ular tarixiy voqelikni oddiy tasvir darajasida emas, balki falsafiy umumlashtirish, jamiyat va insoniyat oldidagi axloqiy-ruhiy mas‘uliyat doirasida anglashga urindilar. Bu esa nemis adabiyotida urush mavzusining poetik-falsafiy yo‘nalishlarida yangi tendensiyalar – antimilitaristik realizm, ekzistensializm, ekspressionizm, ijtimoiy begonalashuv kabi adabiy-falsafiy oqimlarni shakllantirdi (E.M.Remark, H.Byoll, Hans Fallada va boshqalar).

Nemis nasrida urush mavzusida yozilgan romanlarni quyidagi ilmiy tasnif asosida o‘rganish mumkin:

1. *Frontni bevosita voqelik sifatida badiiy ifodalaydigan realistik romanlar;*
2. *Urush ortida jasorat ko‘rsatgan fuqarolik va totalitar ijtimoiy muhit tasviri aks etgan romanlar;*
3. *Urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy va ma‘naviy ruhiy tanazzulni ko‘rsatuvchi badiiy-psixologik romanlar;*
4. *Urushga tanqidiy-huquqiy va axloqiy munosabatda bo‘ladigan romanlar;*
5. *Front sabab muhojirlik va shaxsiy identitetlik masalasi tasvirlangan romanlar.*

Jahon adabiyotshunosligida nemis romanchiligi urush motivini eng teran tadqiq etuvchi o‘ziga xos badiiy maydon sanaladi. Nemis adiblari urushni faqat jismoniy va moddiy halokat sifatida emas, balki shaxs va jamiyat o‘rtasidagi chuqur axloqiy-ruhiy ziddiyatlar, inson tabiati zaifliklari hamda ma‘naviy inqirozning yaxlit badiiy-falsafiy tahlili nuqtayi nazaridan yoritadilar. Bunday yondashuv urushni faqat tarixiy makon va voqelik emas, balki ma‘naviy va ideologik fenomen sifatida idrok qilish zaruratini yuzaga chiqaradi. Aslida, nemis urush romanchiligida asosiy konsepsiya – bu insoniyatning halokat yoqasiga olib keluvchi siyosiy millatchilik, totalitar mafkura va harbiy zo‘ravonlikka nisbatan adabiyot vositasida olib borilgan kuchli axloqiy-estetik tanqididir.

Bobning 2-fasli “*Urush mavzusida yozilgan romanlarda tasodif kategoriyasining o‘rni*” tarzida nomlangan. Unda urush mavzusidagi romanlarda tasodifning badiiy vazifasi, syujet tarkibidagi o‘rni masalasi ilmiy tahlil qilingan.

Urush mavzusi insoniyat sivilizatsiyasi tarixidagi o‘ta ziddiyatli va fojiali fenomen bo‘lib, badiiy matnda ushbu voqelikni idrok etishda tasodif kategoriyasi muhim ilmiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Adabiyot tarixida urushning inson hayotiga kutilmagan, tasodifiy tarzda kirib kelishi va inson taqdiri bilan bog‘liq voqealarni yuzaga keltirishi ko‘plab romannavislar tomonidan poetik ifoda etilgan.

Roman poetikasida “tasodif” kategoriyasi, asosan, tashqi shakl bo‘lib, ichki mohiyatda u “taqdir”ning oldindan belgilangan chizig‘i sifatida talqin etiladi. Ya’ni kutilmagan vaziyatlar syujet rivojida shunchaki tasodif emas, balki qahramonlar hayot yo‘lida muqarrar evrilish nuqtasi hisoblanadi. Inson hayot yo‘lining oldindan to‘liq idrok etib bo‘lmazligi taqdirning o‘ziga xos metafizik xususiyatidir. Shu bois, muayyan voqealar oqimida yuz beradigan hayotiy evrilish va hodisalar inson uchun kutilmagan, bevosita izohlab bo‘lmaydigan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi va subyektiv qabul jarayonida bu “tasodif” ko‘rinishini oladi. Demak, asar syujetida tasodif kategoriyasi orqali kechadigan motivlar: “**ilk uchrashuv**” – qahramonlarni bir-biriga tanituvchi va sinovlarga boshlovchi nuqta; “**ayriliq**” – ularning sabr-toqati va qat’iyatini tekshiruvchi davr; “**visol**” – sinovlardan o‘tgan, ma’naviy kamolotga erishgan qahramonlarga atalgan o‘ziga xos taqdir mukofoti sifatida namoyon bo‘ladi. Bu uch motiv ham tasodifiy ko‘rinishlarga ega bo‘lsa-da, barchasining ildizi “**taqdir**” konsepsiyasi bilan belgilanadi. Taqdir bu jarayonda nainki voqealarning rivojlanish mexanizmi, balki ularning falsafiy asosini tashkil etadi. Har bir “tasodifiy” uchrashuv yoki ayriliq taqdirning oldindan belgilangan rejasi sifatida ishlaydi, qahramonlarning ma’naviy qiyofasini tozalash, ularni tugal haqiqatga yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Tasodif kategoriyasi xususida Mixail Baxtin shunday yozadi: “**Birdan va shu payt** – bu zamonning nisbatan o‘xshash tavsifi yoxud u shunday joyda boshlanib, shunday vaziyatda qonuniy vazifasini o‘tashga kirishadiki, ayni lahzadan e’tiboran aqlga sig‘adigan voqealar oqimi uzilib, **mutlaq tasodif** deb atalgan maxsus mantiq asosida harakat qiluvchi zamonga o‘rnini bo‘shatadi... Nimadir, aynizamonga xos tasodiflarga zid ravishda bir daqiqa oldin yoki bir daqiqa keyin yuz bermaganida syujet ham bo‘lmazdi, roman ham yozilmasdi.”<sup>8</sup> Baxtinning fikricha, tasodif roman janrining asosiy mexanizmlaridan biridir. Sababi roman murakkab ijtimoiy, shaxsiy, ma’naviy va madaniy voqeliklarni o‘zida jamlaydi. Bu voqeliklarni faqat qat’iy determinatsiya (oldindan belgilanganlik) orqali emas, balki ochiq ehtimolliklar orqali harakatlantirish talab etiladi. Aynan tasodif fenomeni syujetga ichki dramatik kuch berib, uni kutilmagan o‘zanga buradi va qahramon taqdiridagi hal qiluvchi sinov nuqtasini yuzaga chiqaradi. Badiiy asar syujetida bunday keskin burilishlar adabiyotshunoslik lug‘atlarida peripetiya deb ham yuritiladi. “Peripetiya – (yun. Peripeteia – kutilmagan burilish) – syujetshunoslik kategoriyalaridan biri, voqea rivoji va qahramon taqdiridagi kutilmagan keskin burilish... Peripetiya kutilmaganlik, qandaydir tasodif tufayli voqealar rivoji va qahramon taqdirida kutilmagan evrilishlar yuz berishi xos bo‘lib, bu

---

<sup>8</sup> Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. (Рус тилидан У.Жўракулов таржимаси). – Тошкент: Академнашр, 2015. – Б. 52-53.

qahramon bilan taqdiri azal konflikti asosiga qurilgan syujetlarda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan.”<sup>9</sup> Bundan ayon bo‘ladiki, peripetiya kutilmaganlikka xosdir, ya’ni u avvalgi voqealar oqimidagi muayyan qonuniyatlarni buzgan holda, syujetga yangi dramatik kuch beradi, qahramon taqdirini yangi shaklda aniqlaydi. Boshqacha qilib aytganda, badiiy asarda syujet chizig‘i keskin burilish nuqtasiga yetgan, voqealarning kutilmagan tarzda yangi yo‘nalishga o‘tgan bosqichi aynan peripetiyaadir.

Bunday peripetiyaalar Shuhratning “Oltin zanglamas” romani syujet qurilishida yetakchi o‘rin tutadi. Asar qahramoni Sodiq osoyishta va barqaror ijtimoiy maqomga ega bo‘lgan, xalq orasida hurmat qozongan maktab direktori sifatida hayot kechiradi. Ammo uning hayotidagi keskin o‘zgarish kutilmagan va shaxsiy nazoratidan tashqaridagi omil – fitna va tuhmat oqibatida yuz beradi. Tashqi tomondan bu voqea “tasodif” sifatida ko‘rinadi, chunki u Sodiqning faoliyatidagi qonuniy yoki odatiy oqimni keskin parchalaydi. Ammo bu tasodif asar poetikasida taqdir sinovi sifatida ishlatiladi.

Peripetiya, asosan, tasodif vositasida yuzaga chiqadi. Ammo u oddiy “bema’ni kutilmagan holat” emas, balki asar kompozitsiyada badiiy zarurat shart bo‘lgan dramatik mexanizm bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, peripetiya va tasodif o‘rtasida muayyan farqlanish kuzatiladi: tasodif syujetda kutilmagan, rejasiz, hayotda yuz berishi mumkin bo‘lgan voqelikdir. Bu syujet tarkibida muhim zaruratni, ilohiy taqdirni yorituvchi badiiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Peripetiya esa ana shu tasodif orqali yuzaga chiqqan, ammo syujetning asosiy burilish nuqtasiga aylangan estetik va dramatik konstruksiyadir. Asar qahramoni taqdirdagi muhim burilish – bir holatdan ikkinchi holatga o‘tib qolishi aynan peripetiya ekan, u baxtli yoki baxtsiz tasodif orqali amalga oshadi. Peripetiya badiiy asar syujetida dramatik burilish yasaydigan asosiy kompozitsion unsurlardan biri sifatida ko‘pincha tasodifga tayanadi, natijada syujet strukturasi zaruratga aylanadi.

Tadqiqotimizning ikkinchi bobi **“Remark va Shuhrat romanlari syujeti, obrazlar tizimida tasodifning psixologik talqini”** deb nomlanadi. Mazkur bob ikki fasldan tashkil topgan. 1-faslda *“Roman syujetida tasodifiy tugun, voqealar rivoji va yechim masalasi”* tadqiq qilingan.

Roman syujeti – bu faqatgina bir-biriga ulanib ketgan voqealar yig‘indisigina emas, balki ma’lum badiiy konsepsiya asosida tashkil etilgan voqealar tizimidir. Syujetda voqealar tizimi orqali muallifning falsafiy qarashlari, jamiyat haqidagi mulohazalari va inson haqidagi tasavvurlari ifodalanadi. Shuning uchun ham syujet faqat “tartiblangan voqealar” emas, balki asarning g‘oyaviy-badiiy mazmunini mujassamlashtiruvchi falsafiy-estetik struktura hisoblanadi. Syujet kompozitsion yaxlitlikni ta’minlaydi. Unda voqealar oddiy ketma-ketlikda joylashmaydi, balki muayyan dramatism qonuniyatlariga bo‘ysunadi: **tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya** va **yechim** bosqichlari orqali syujet voqealari o‘zaro mantiqiy va badiiy bog‘lanishda bo‘ladi. Tugun asosiy konfliktning paydo bo‘lish nuqtasi bo‘lsa, voqealar rivoji dramatik keskinlikni oshirib boradi, kulminatsiyada ichki qarama-qarshilik eng yuqori nuqtaga chiqadi. Yechimda esa ana shu konflikt barham topadi yoki muallif tomonidan biror yakun beriladi. Bularning barchasi tasodif va zarurat, qahramon

<sup>9</sup> Куронов Д. ва бошқ. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 222-223.

xarakteri, badiiy xronotop hamda muallif konsepsiyasi bilan uyg'unlashib, estetik butunlikni hosil qiladi.

Adabiy asarlarda "**tasodifiy tugun**" tushunchasi syujet konfliktining paydo bo'lishida kutilmagan, syujet chizig'ida qahramonni ziddiyatlar iskanjasiga olib kirishda va bu orqali asar drammatizmini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tasodifiy tugun, odatda, qahramonlar irodasidan tashqarida yuz beradigan hodisa bo'lib, asar voqealarini keskin yangi yo'nalish tomon buradi. "Tugun, – deydi akademik Izzat Sul-ton, – konfliktning ilk marotaba ro'yobga chiquvchi va syujetning rivojlana boshlashiga turtki berilishidir. Tugun ekspozitsiyadan o'sib chiqadi..."<sup>10</sup> Tasodifiy tugunlar real hayotdagi kutilmagan holatlarning badiiy ko'rinishi bo'lib, u nafaqat syujetni jonlantiradi, balki qahramonlarning ichki dunyosi va shaxsiy fazilatlarini kashf etishda muhim vosita sanaladi. Xususan, Shuhratning "Oltin zanglamas" romanida tasodifiy tugun bir tarafdin, Sodiq va Mirsalim o'rtasidagi ziddiyatlardan kelib chiqqan bo'lsa, ikkinchidan, Qodirning atlas ko'ylakli qiz bilan bog'dagi tasodifiy uchrashuvi misolida yorqin ko'rinadi. E.M.Remarkning "Uch o'gayni" romanida ham tasodifiy tugun orqali syujet boshlanadi. Germaniyaning iqtisodiy inqirozi fonida uchta do'st kichik avtomobil ustaxonasida ishlaydi. Bosh qahramon Robert Lokamp (Robbi) maftunkor Patritsiya Holman bilan tasodifan tanishadi; ular jamiyatning turli qatlamlaridan bo'lsalar ham, bir-birlarini sevib qolishadi va bu sevgi keyingi voqealarning bosh sababiga aylanadi. Xuddi Qodirning uchrashuvi kabi Robert va Patritsiyaning uchrashuvi ham ularga bog'liq bo'lmagan tasodifiy hodisa sifatida syujet tugunini yaratadi. Tasodifiy tugunlar ko'pincha qahramonlarning kelgusi taqdirini hal etuvchi "tanlov" vaziyatlarini yuzaga keltiradi.

Tugun paydo bo'lganidan so'ng, **voqealar rivojida** ham kutilmagan, tasodifiy unsurlar muhim rol o'ynaydi. Badiiy asarda voqealar rivojining vazifasi drammatizmni oshirib borishdir. Tasodifiy hodisalar bu jarayonni tezlashtiradi yoki yanada murakkablashtiradi. Adabiyotshunoslikda voqealar rivoji haqidagi tushuncha "tugundan so'ng voqealarning zo'rayib, kengayib borishi"<sup>11</sup> sifatida ta'riflanadi. Syujet voqealari rivojida qarama-qarshilik jiddiy tus oladi. Masalan, "Oltin zanglamas"da qarama-qarshilik aniq va keskin: Sodiq – hukumatga halol xizmat qiluvchi ziyoli, Mirsalim – tuzum odamlariga, sovet mulozimlariga yaxshi ko'rinish uchun hech narsadan toymaydigan, maddoh va yaramas tip, Dilovarxo'ja – hukumatga qarshi qurollangan bosmachi fonida tasvirlanadi. Bu konfliktlar muayyan siyosiy-ideologik nuqtayi nazarga asoslanadi. Remark romanlarida esa qarama-qarshilik murakkab va ichki dinamikaga ega: frontdagi do'stlik va insoniy qadriyatlar urushdan keyin jamiyatda yo'qolgan insoniylik, iqtisodiy beqarorlik, psixologik iltirob fonida sinovdan o'tadi. Bu qarama-qarshilik tashqi emas, ko'proq ichki va ijtimoiy-ma'naviy qiyofani aks ettiradi.

Voqealar rivojida drammatizmning kuchayishi Sodiqning qamoqda kechirgan sinovlari, Remark qahramonlari taqdiridagi ajralishlar orqali kulminatsion nuqtaga ko'tariladi. Har ikki romanda ham turli ijtimoiy-siyosiy to'qnashuv, lager hayoti, urushda dushmanlar bilan yuzma-yuz kelish, hayotning murakkabligi – bularning

<sup>10</sup> Izzat Sul-ton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 113.

<sup>11</sup> Qur-onov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. – B. 106.

barchasi voqealar oqimini fojiviy keskinlikka olib chiqadi. Ayni bosqichda qahramonning ma'naviy sobitligi, sadoqati, sabr-bardoshi, adolatparvarlik fazilatlari sinovdan o'tadi. Mana shu kulminatsiya qahramonni **yechim** sari olib boradi. Demak, "syujet rivojida kulminatsiya "yechim"ni tayyorlaydi va uning bevosita muqaddimasi rolini o'ynaydi."<sup>12</sup> Syujet yechimi – asardagi konfliktning tugashi, dramatik chiziqning yakunlanishidir. Har qanday roman uchun muhim narsa – yechimning badiiy mantiqqa muvofiq va syujetning oldingi qismlari bilan uzviy bog'langan bo'lishidir. Tasodifiy tugun, voqealar rivoji va yechim roman strukturasi uchun shunchaki syujet vositasi emas, balki zamon va hayot falsafasini ochib beruvchi poetik prinsipdir.

"Oltin zanglamas" romanida voqealar rivojining yakuniy bosqichida Sodiqning halol va fidokorona umr yo'li o'zining munosib bahosini topadi. "Haq joyini topadi" bo'limida va "Xotima" qismida uning qadr-qimmatini xalq va hukumat tomonidan tan olinadi. Partiya komissari hamda raykom sekretarining qahramonga nisbatan ishlatgan "oltin odam" deya bildirgan fikrlari asar kompozitsiyasida yakunlovchi badiiy xulosa bo'lib xizmat qiladi.

"Uch og'ayni" romani syujetida tasodifiy tugun (Uch o'rtoq hayotiga Patrisiyaning kirib kelishi), voqealar rivoji (Patrisiya kasalligining kutilmaganda ayon bo'lishi) oxir-oqibat tasodifiy yechim (uning fojiviy o'limi) bilan tugallanadi.

Syujetdagi tasodifiy yechim, ya'ni Patrisiyaning fojiviy o'limi roman poetikasida quyidagi ramziy ma'noni kasb etadi:

*birinchidan*, "yo'qotilgan avlod" fojiasi shundaki, urushdan keyingi avlodning orzulari, sevgisi, kelajak rejalari tasodifiy hodisalar girdobida barbod bo'lib, sarobga aylanadi. Patrisiyaning fojiviy o'limi ana shu beqarorlikning ramziy ifodasi sanaladi;

*ikkinchidan*, baxt va fojia o'rtasidagi chegara: bir tomondan, Patrisiya Robert hayotining ma'nosi, uning sevgisi va tayanchi edi; boshqa tomondan esa aynan shu sevgi kutilmagan fojiaga aylanadi;

*uchinchidan*, Patrisiya o'limi romanda tasodifiy yechim sifatida berilgan bo'lsa-da, uning tubida inson taqdiri va zamon ruhiyati yotadi. Sil kasalligining kutilmaganda avj olishi, tong otishidan oldin uning hayotdan ko'z yumishi tashqi ko'rinishda beqaror, nazorat qilib bo'lmaydigan hodisadek namoyon bo'ladi. Ammo bu voqea urushdan keyingi avlodning umumiy fojiviy taqdirini ifodalaydi.

"Uch og'ayni"da yechim fojiviy tusda: Patrisiya kasalligi va Gotfridning o'limi kutilmagan, nazorat qilib bo'lmaydigan voqealar sifatida tasvirlanadi. Bu urushdan keyingi avlodning tahlikali turmushi, inson hayotining beqarorligi va uning taqdir oldidagi ojizligi ramzidir. "Oltin zanglamas"da esa yechim dramatik, biroq ijobiy tusda bo'ladi. Ya'ni Sodiqning sha'ni tiklanadi, u "oltin odam" sifatida e'tirof etiladi. Tasodifiy burilishlar oxir-oqibat adolat tantanasiga olib keladi va romanning asosiy g'oyasi mustahkamlanadi.

Demak, Remark tasodifiylikni hayotning fojiviy falsafasi sifatida ishlatib, Shuhrat uni inson sobitligi va adolat g'oyasini isbotlovchi dramatik vosita sifatida talqin qiladi.

---

<sup>12</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 114.

Bobning “*Obrazlar talqinida tasodif va psixologizm uyg‘unligi*” deb nomlangan 2-faslida “Uch og‘ayni” va “Oltin zanglamas” romanlarida obrazlar tizimi, unda tasodifning ahamiyati, psixologik vaziyatlar uyg‘unlashuvi ilmiy asoslab berilgan.

Adabiyotshunoslikda psixologizm biror ruhiy holatni so‘z bilan tavsiflash emas, balki qahramon o‘y-fikrlarini, ong oqimlari va noaniq sezgilarni ifodalashning murakkab usuli sifatida talqin etiladi. Syujetdagi tasodiflar esa voqealar rivojiga kutilmagan burilish olib kirib, personajning ichki olamiga qanday ta’sir qilishini ochishga xizmat qiladi. Shu ma’noda tasodif va psixologizmning uyg‘unligi – badiiy matnda tashqi hodisa va ichki ruhiyatning bir-birini to‘ldirishi badiiy-estetik tamoyildir.

Psixologizm adabiyotshunoslikda badiiy asar qahramonlarining ichki ruhiy kechinmalarini tasvirlash usuli sifatida qo‘llaniladi. Umumiy adabiyot nazariyasida psixologizm quyidagi jihatlar orqali tavsiflanadi:

1) qahramon ruhiy holatini to‘g‘ridan to‘g‘ri aks ettiruvchi ichki monologlar, xayol va ong oqimi;

2) tashqi voqealar, tabiat manzaralari, narsa-hodisalar metaforasi orqali personaj ichki holatini ko‘rsatish;

3) muallif qahramonlarning tashqi dialog va ichki monologlari orasida o‘tib turishi sababli ko‘pincha bir zumda paydo bo‘lgan tasvir, tovush yoki his-tuyg‘u bilan uyg‘unlashib, obrazning ruhiy holatini yanada chuqur ochib berish;

4) personaj nutqida izchil bo‘lmagan, murakkab savollarning to‘qnashuvi.

Bu unsurlar, ayniqsa, modern va postmodern adabiyotda qahramonlarning ichki dunyosini ko‘rsatadigan muhim usullar hisoblanadi va asarda sodir bo‘ladigan tasodifiy hodisalar ko‘pincha qahramonning o‘zini anglashiga turtki bo‘lib xizmat qiladi.

Sodiq obrazida tasodif va psixologizm oila va jamiyat ziddiyatlari fonida aks etadi. Sodiq maktab direktori sifatida, halolligi va talabchanligi bilan tanilgan; lekin qo‘l ostidagi xodimlari uni tushunmaydi. Mirsalimning “zimdan” yozgan shikoyat xati natijasida Sodiq qamaladi. Bu tasodifiy hodisa qahramonning ruhiy iztiroblarini yanada kuchaytiradi. Avvalroq, Sodiqning Jannat bilan ajralish qarori ham bir qarashda tasodifiydir. Ya’ni Musharrafning paydo bo‘lishi va unga uylanib, farzand ko‘rish istagi uning oilaviy hayotini o‘zgartiradi. U ichki monologda Jannatni deb o‘zini oqlaydi, lekin maktabdan ketish paytida yuragi “uzilib qolayotgandek achishadi”, o‘quvchilar bilan vidolashishda ko‘ziga yosh keladi. Ajralish sahnasida Jannatning “*Men sizning umringizga zomin bo‘lmayman. Men bir kunimni ko‘rib ketarman*”<sup>13</sup> deya yig‘lashi Sodiq ruhiy holatining cho‘kishini ko‘rsatadi. U nima qilishini bilmay gangib qoladi; buni muallif qo‘rqinchli tunda, yulduzli osmon, ariq bo‘yidagi o‘rik soyasi tasvirlari bilan uyg‘unlashtiradi. Tasodifiy hodisalar – ko‘chish, siyosiy fitna, yangi tanish – Sodiqning ichki dunyosini ochishga zamin yaratadi. Shuhrat bu orqali sovet davridagi sof vijdon va ijtimoiy tazyiq qarama-qarshiligini psixologik tarzda yoritadi.

Remarkning “Uch o‘gayni” romani frontdan qaytgan uch do‘stning taqdiri misolida “yo‘qotilgan avlod”ning ruhiy holatini badiiy tasvirlaydi. Asarning asosiy

---

<sup>13</sup> Шухрат. Олтин зангламас. Роман. – Тошкент: Фафур Гулом, 2021. – Б. 54.

syujet chizig'i Robert Lokamp, Otto Kester va Gottfrid Lens nomlari bilan bog'liq bo'lib, bu uch qahramon bir-biri bilan yuksak insoniy tuyg'ular va ma'naviy rishtalar bilan uzviy bog'langan. Ularning o'zaro yaqinligi tasodifiy tanishuv natijasi emas, balki Birinchi jahon urushining mudhish sahnalarida, o'lim bilan yuzma-yuz kelgan fojiali tajriba davomida shakllangan. Bu uchlik urushda faqat jangovar do'stlar sifatida emas, balki hayot va o'lim oralig'ida bir-biriga suyanishga majbur bo'lgan insonlar sifatida birlashgan. Ular birgalikda safdoshlarini yo'qotgan, g'ayriinsoniy sinovlarda matonat ko'rsatgan va har qanday sharoitda ham o'z insoniy qiyofalarini saqlab qolish uchun kurashganlardir.

Patritsiya obrazi ham tasodifiy hodisalar orqali ochiladi. Bir qarashda sipo, jasur va ochiqko'ngil ko'ringan qiz keyinchalik sil kasalligiga chalinib, sanatoriyada hayotdan ko'z yumishi Robertning ruhiyatiga og'ir zarba bo'ladi. Mazkur voqea tahlili shuki, inson irodasiga bo'ysunmas tasodifiy dard do'stlik va sevgi ustidan o'zining shafqatsiz hukmini o'qiydi. Tasodifiy fojialar – Patritsiya va Lenzning o'limlari – qahramonlarning ichki g'am-g'ussasini ochadi. Roman so'ngida Robertning psixologik holati shunday tasvirlanadi: *Der Hund kam herein und setzte sich zu mir. Ich habe gesehen, wie ihr Gesicht anders wurde. Ich konnte nichts tun, als leer dasitzen und sie ansehen. Dann kam der Morgen, und sie war es nicht mehr.*<sup>14</sup>

“Qo'limdan hech narsa kelmadi. Ko'nglim vayron bo'lib, unga termilib o'tirishdan boshqa hech narsa kelmasdi qo'limdan. Keyin tong otdi, endi Patdan abadul-abal judo bo'lgandim.”<sup>15</sup> Bu tasvir bilan Remark urushdan keyingi ma'naviy bo'shliq va mavhumlikni psixologizm orqali yetkazadi.

“Oltin zanglamas” va “Uch og'ayni” romanlaridagi tasodif va psixologizm uyg'unligi masalasi qiyosiy tahlil qilinganda, Shuhrat asarida psixologik tahlil lirik tasvirlar va shoirona ruh bilan uzviy yo'g'rilgan. Sodiq va Qodirning ruhiy holati qishloq tabiatining go'zalligi, musichalar, daraxtlar, suv tovushi orqali ifodalanadi. Sodiqning ichki kurashi, iztirobi Jannatning ko'z yoshida, Adolat xolaning tasallisida uyg'unlashadi. Remarkning badiiy uslubi esa realistlik va voqelikni ro'y-rost tasvirlash bilan xarakterlanadi. Robert o'z fikrlarini to'g'ridan to'g'ri “men” shaklida bayon qiladi, uning so'zlari qisqa va keskin tarzda yangraydi. Qahramon ko'pincha biroz hazil yoki kinoya aralash, o'zi boshdan kechirgan og'ir hodisalardan (masalan, urush yoki shaxsiy fojidan) so'ng qolgan ruhiy iztiroblarini ochiq tan oladi. Ya'ni u ichida nimalar his qilayotganini yashirmay, o'quvchiga aniq bildiradi.

Demak, badiiy adabiyotda tasodifiy voqealar va badiiy psixologizmning uyg'unlashuvi qahramonlarning faoliyati va ichki kechinmalarini mushtarak tarzda aks ettiruvchi poetik usuldir. Shuhrat ham, Remark ham o'z asarlarida o'ziga xos davr va madaniy sharoitlar ta'sirida tasodiflardan qahramonlarning ichki portretini ochish vositasi sifatida mohirona foydalanadilar. Shuhratning romanida kutilmagan uchrashuvlar – sevgi, tabiatning go'zalligi, mustabid tuzum fojialari, front va front orti qiyinchiliklari va vijdon pokligini namoyon etsa, Remarkning asarida ular, asosan, urushdan keyingi zulmat va fojialarni ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Ikkala asarda ham chuqur psixologik tahlil obrazlarni hayotiy, ko'p qatlamli qilib tasvirlaydi va

<sup>14</sup> Remarque, Erich Maria. Drei Kameraden. Roman. Kiepenheuer & Witsch. 1991. – P. 564-565.

<sup>15</sup> Remark E.M. Uch og'ayni. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – B. 510

tasodif bilan psixologizmning badiiy imkoniyatlari muvaffaqiyatli uyg'unlashib ketishi mumkinligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning so'ngi bobi "**Tasodif muhitini psixologik tasvirlashda uslub poetikasi va badiiy nutq komponentlarining ahamiyati**" deb nomlanadi. Birinchi fasl "*Tasodifiy epizodlar, xarakter va portret badiiyati*" masalasini Shuhrat va Remark romanlari misolida qiyosiy kontekstda o'rganishga qaratilgan.

Asar strukturasi tasodifiy epizodlar, xarakter va portret badiiyati o'zaro uzviy bog'liq bo'lgan uchta muhim poetik kategoriyadir. Bularning har biri alohida badiiy-estetik vazifa bajarsa-da, ular asarning umumiy g'oyasi va poetik mazmunini shakllantirish jarayonida bir-birini to'ldirib, qahramonning ruhiy olamini ko'rsatishda o'zaro uyg'unlashadi. Tasodifiy epizodlar obrazlar taqdirining burilish nuqtalarida muhim ahamiyat kasb etar ekan, xarakter insonning ichki dunyosini ochib beradi, portret esa ana shu ichki dunyoning tashqi ko'rinishdagi tasdig'idir.

Badiiy asarda tasodif epizodlar orqali namoyon bo'ladi. Badiiy asarda epizod – syujetning nisbatan yakunlangan, ma'lum vaqt va makonga ega bo'lgan, voqealar rivojining muayyan bosqichini aks ettiruvchi tarkibiy qismidir. U asar kompozitsiyasida syujet dinamikasini ta'minlaydi, qahramon xarakterini ochadi, konfliktni rivojlantiradi yoki muallif g'oyasini aniqlashtirishga xizmat qiladi. Epizod odatda bitta markaziy voqea, vaziyat yoki muloqot atrofida quriladi va badiiy matnda mazmun, dramatism yoki obrazlar tizimini boyituvchi mustaqil struktura sifatida namoyon bo'ladi. U voqealar rivojini bosqichma-bosqich yoritish bilan birga, qahramonlar xakteri va asar konfliktini yanada chuqurlashtiriladi.

Xarakter – insonning ichki dunyosini, ruhiy holatini, hayotga munosabatini va tafakkur tarzini aks ettiruvchi badiiy obrazning mahorat bilan ishlangan psixologik portretidir. Badiiy asarda xarakter bu shunchaki sirtqi tasvir emas, balki qahramonning o'zini tutishi, ijtimoiy hayotga munosabati, o'zgarishlarga qanday javob berishi orqali ochiladi. Xarakter – inson shaxsiyatining zaminini tashkil etuvchi ruhiy holatlar, orzu-umidlar, iroda va intilishlar yig'indisidir. U syujetning harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, tasodiflar vositasida sinovdan o'tadi, murakkablashadi, shakllanadi va badiiy tajribaga aylanadi. U adabiyotning konseptual vazifasini amalga oshiruvchi vosita bo'lib, jamiyatning mavjud holatini tasvirlash, undagi ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy masalalarni badiiy tadqiq etish hamda yaxlit estetik konsepsiya yaratishda markaziy o'rin tutadi. Shu bois, xarakter yaratish ijodkorning g'oyaviy-estetik pozitsiyasini ifodalovchi eng muhim san'atkorlik jarayonlaridan biridir.

Akademik Izzat Sulton ta'kidicha, "Yozuvchi syujetini o'zi xohlagan tartibda qura olmaydi, balki tasvir etmoqchi bo'lgan xarakterlarning xususiyatlarini nazarda tutib ish ko'radi"<sup>16</sup>. Shuhrat "Oltin zanglamas" romanida Sodiq obrazi syujetning yo'nalishini belgilaydi. Uning halol, pok va vijdonli, "zanglamaydigan oltin yigit" xakteri voqealar oqimini tabiiy ravishda shakllantiradi. Shu bois, syujet konstruksiyasi muallifning subyektiv xohishidan ko'ra, qahramon xakterining ichki mantig'i bilan belgilanadi. Romanda Mirsalim xakteri ham syujet qurilishida muhim o'rin tutadi. U ikkiyuzlamachilik, manfaatparastlik, fitna va tuhmat orqali yuqoriga chiqishga intiluvchi obraz sifatida tasvirlanadi.

---

<sup>16</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 117.

Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” romanida esa Robert Lokamp xarakteri syujet dinamikasini boshqaradi. Demak, badiiy asarda syujet tuzilishi yozuvchining erkin konstruksiyasi emas, balki qahramonlarning xarakter xususiyatlari, ularning ichki mantig‘i va hayotiy pozitsiyasidan kelib chiqqan holda shakllanadi. Bu esa Izzat Sulton ta’kidlaganidek, badiiy asarda syujetning konseptual asosini xarakterlar belgilashini tasdiqlaydi<sup>17</sup>.

Portret esa insonning tashqi ko‘rinishi orqali ichki ruhiy holatining, psixologik dunyosining nozik qirralarini ochib beruvchi poetik vositadir. Realistik adabiyotda portret tasviri tasodifiy detallar yig‘indisi emas, balki xarakterning tashqi ifodasi, ruhiy dunyoning ko‘rinishdagi aksidir. Qahramonning yuz ifodasi, nigohi, sochlari, kiyimi, harakatlaridagi o‘ziga xosliklar, nutq ohanglari, ritmi, to‘xtamlari va hatto og‘ir sukunat orqali uning ichki kechinmalari ochib beriladi. Shu ma’noda portret tasviri badiiy obrazning ichki va tashqi uyg‘unligini ta’minlaydi, qahramon ruhiyatidagi o‘zgarishlarning estetik ko‘rinishdagi timsoliga aylanadi.

Umuman olganda, tasodif, xarakter va portret badiiyati asar poetikasining bir-birini to‘ldiruvchi, o‘zaro murakkab aloqadorlikdagi elementlari bo‘lib, ular obrazning harakat motivlari va ruhiy kechinmalarini, ichki va tashqi o‘zgarishlarini san’atkorlik bilan yoritish imkonini beradi. Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida bu jihatlar, ayniqsa, teran va murakkab qatlamda badiiy aks etgan bo‘lib, asar strukturasi va g‘oyaviy-estetik asosini tashkil etuvchi asosiy omillar sifatida e’tiborni tortadi. Roman voqealari davomida Sodiq turli sinovlarga: tuhmat, fitna, adolatsizlik va ijtimoiy bosimlarga duch keladi. Shu holatlarda uning sabr-bardoshi va sokin mushohadaga tayanishi qahramonning ma’naviy yetukligini ko‘rsatadi. Bu jihat klassik psixologik realizmda ko‘p uchraydigan “ichki kolliziya” motivini eslatadi. Ya’ni tashqi ziddiyatlarga qaramay, qahramon o‘z axloqiy asosidan voz kechmaydi. “Oltin zanglamaydi” – oltin (asl) inson ma’naviy tanazzulga uchramaydi. Shuhratning “Oltin zanglamas” romanida “oltin odam” timsoli asarning g‘oyaviy-ramziy yadrosini tashkil etadi. “– *U oltin odam edi! Oltin esa, zanglamaydi! Er yigit el uchun tug‘iladi, el uchun o‘ladi, unga shon-sharaflar bo‘lsin!*”<sup>18</sup> Asarning ana shu badiiy konsepsiyasi bevosita Sodiq xarakterida mujassam bo‘lib, uning shaxsiy hayoti, jamiyatdagi faoliyati va taqdir yo‘lidagi sinovlar orqali falsafiy ma’no kasb etadi.

“Uch og‘ayni” romani insonning ruhiy sindromi, qadriyatlarga sadoqat va yo‘qotishlar fojiasini badiiy qamrab olgan yuksak psixologik asardir. Asarda tasodif, xarakter va portret kabi poetik komponentlar faqat syujetni harakatlantiruvchi omillar sifatida emas, balki insonning ekzistensial holatini ifodalovchi estetik kategoriya darajasiga ko‘tariladi. Ushbu asarda tasodifiy voqealar, xarakterlarning murakkab psixologik tizimi va portret tasviri orqali zamonaviy insonning iztiroblari, yo‘qotishlari, fojiasi va hayotdan ma’no izlash kabi harakatlari tasvirlanadi. “Uch og‘ayni” romanida qahramonlarning real hayotda mavjudligi, o‘rni, ularning hayot haqidagi falsafiy qarashlari, ruhiyatidagi evrilishlarni ekzistensial holatga mengzash mumkin. Lekin bu yondashuv Remarkni ekzistensialist yozuvchi sifatida emas, balki

<sup>17</sup> Shu manba. – B. 117.

<sup>18</sup> Шуҳрат. Олтин зангламас. Роман. – Тошкент: Фафур Фулом, 2021. – Б. 514.

ekzistensial kayfiyatga ega bo'lgan realistik yozuvchi sifatida e'tirof etishga to'la asos bo'ladi.

Remarkning "Uch og'ayni" hamda Shuhratning "Oltin zanglamas" romanlarida urushdan keyingi inson tasodiflar qurshovida tasvirlanadi. Ijtimoiy hayot izga tushmagan, jamiyat to'la tiklanmagan, ma'naviy inqiroz hukm surgan murakkab bir davrda har bir qadam tasodifga bog'liq ekanligi har ikki romanda mushtarak g'oya sifatida talqin etiladi. Qahramonlarning xarakterlari tasodif bilan shakllanadi, harakatlari esa urushning ruhiy soyasi ostida kechadi.

Uchinchi bobning 2-fasli "*Psixologik tasvir va nutq shakllarining badiiy mushtarakligi*" deb nomlanib, mazkur fasl "Oltin zanglamas" va "Uch og'ayni" romanlaridagi qahramonlarning ruhiy holatlari va nutq komponentlari tahliliga bag'ishlangan.

Adabiyot inson qalbi va tafakkurining teran qatlamlarini tadqiq etish uchun mukammal ma'naviy, ma'rifiy va badiiy vositalardan biridir. Xususan, psixologik tasvir va nutq shakllari badiiy matnning inson ichki dunyosini ifodalashdagi muhim komponentlaridir. Urush tasvirlangan romanlarda portret emas, balki qahramon xarakteri va nutqiy ifoda usullari yetakchi o'rinni egallaydi. Mazkur uch muhim komponent uyg'unlashuvi natijasida badiiy psixologizm maydonga keladi. Aynan hayotiy, real voqelikdagi psixologizmni aks ettirish vosita sifatida dialog asarning badiiy haqiqatini ta'minlaydi. Bu jihat, ayniqsa, realistik va psixologik proza an'analarida muhim o'rin tutadi. Dialog asar kontekstida personajlararo munosabatlar, ruhiy holat, qarama-qarshilik va yaqinlik darajalari, sotsiomadaniy fonni ham o'zida yaqqol aks ettiradi.

Badiiy nutqning yana bir shakli monologdir. U ham badiiy asarda muhim poetik vazifa bajaradi. Ya'ni qahramonning shaxsiy hayot falsafasi, o'y-u xayollari, ruhiy holati monolog orqali ifodalanadi. Akademik Izzat Sulton monolog haqida: "Personajning hayot haqidagi eng muhim o'ylarini bir joyga yig'ib, yorqin ifoda etgan personaj tomonidan boshqalarning yo'qligida yoki ular sukunatda aytilgan katta nutq "monolog" deb ataladi. Monolog personajning ichki dunyosini uning o'z tili bilan batafsil va hayajonli tarzda ochib beradi"<sup>19</sup>, deya izoh keltiradi. Personajning ruhiy holatini uning o'ylari orqali izhor etgan yakka nutq shakli bu – "ichki monolog" dir.

Shuhratning "Oltin zanglamas" va Remarkning "Uch og'ayni" romanlari o'rtasida psixologik tasvir va nutq shakllari (personaj nutqi – dialog va ichki monologlar, hikoyachi roviy hamda muallif nutqi) jihatidan qator badiiy mushtarakliklar mavjud. Har ikkala asarda ham urushdan keyingi inson ruhiyatidagi iztirob, jamiyatdagi o'zgarishlar va hayotdagi tasodiflar fonida kishi qalbining bo'shlig'i, qo'rquvi, umidsizlik va shu bilan birga yashashga intilishi tasvirlanadi.

Oltin zanglamas" romanida inson qalbidagi kechinmalar insonning ichki iztiroblari va jamiyatdagi ijtimoiy bosimlar o'rtasidagi ziddiyat orqali ochiladi. Shuhratning qahramonlari ko'pincha botiniy sukunat va ichki dialoglar orqali tasvirlanadi. Masalan, Jannat obrazida psixologik tasvir yetakchilik qiladi. Bolasizlik fojiasi uning butun ruhiyatini egallagan. Qalbi qattiq iztirobda, lekin tashqi ko'rinishi ko'pincha sabr-bardoshli ayol sifatida tasvirlangan. Muallif dialog, ichki monologlar

---

<sup>19</sup> Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – B. 134.

va boshqa nutq komponentlari orqali ayol ruhiyatining nozik qirralarini ochib beradi. *“Avvaliga eriga bildirmay ichida kuydi, birovgaga aytgani uyaldi, yoshlik qildi, xilvatga o‘tib, achchiq-achchiq yig‘ladi. Tanish-bilishlarning ko‘zi yoriganini eshitsa, a‘zoyi badani zirqirab iztirobdan titrab ketardi, kimdir “Nega tug‘maysan?” deb boshiga tana toshi otayotgandek bo‘lardi. Uning ko‘ngli buzilganini ko‘rgan Adolat xola boshini silardi:*

– *Sabr qiling, jon bolam, Xudo sevgan qulini befarzand qo‘ymaydi. Sabr so‘ngi – sariq oltin.*

– *Sabr qilmay, nima qilyapman, oyijon! – derdi Jannat va yana battar yonardi, Tashi kulib, ichi yig‘lardi.”*<sup>20</sup> Mazkur parcha “Oltin zanglamas” romanida Jannat obrazini ochishda muallifning psixologik tasvir vositalaridan samarali foydalanganini ko‘rsatadi. Bu epizod – bolasizlik fojiasining ayol ruhiyatiga ko‘rsatgan chuqur ta‘sirini, uning ichki va tashqi holati o‘rtasidagi ziddiyatni yorituvchi eng muhim o‘rinlardan biridir. Bolasizlik fojiasi Jannatning butun hayotini egallagan. Muallif bu fojiani ko‘rsatishda tashqi voqealarni emas, balki ayolning ichki kechinmalarini markazga qo‘yadi. *“Ichida kuydi”, “achchiq-achchiq yig‘ladi”, “zirqirab iztirobdan titrab ketardi”* kabi tafsilotlar syujetni voqelikdan ko‘ra ko‘proq qahramonning ichki ruhiy olimiga ko‘chiradi. Keltirilgan parchada Jannatning iztiroblari garchi shaxsiy xarakterga ega bo‘lishi bilan birga, u o‘z davrining ijtimoiy muhiti va hukmron qarashlari bilan uzviy bog‘langandir. Tanish-bilishlarning *“ko‘zi yorigani”* haqidagi xabar va *“nega tug‘maysan?”* kabi kinoyalar jamiyatning ayolga nisbatan qat‘iy talab va stereotiplarini ifodalaydi. Shu tariqa muallif qahramon ruhiyati misolida jamiyatning shaxsga nisbatan shafqatsiz bosim mexanizmini fosh etadi. Bu o‘rinda individual fojia milliy-madaniy kontekst bilan chambarchas uyg‘unlashadi. Umuman, Jannat obrazidagi befarzandlikning ruhiy azobi ijtimoiy muammo sifatida roman markazidagi psixologik kechinma va dinamik holat sifatida tasvirlanadi.

Erix Mariya Remarkning “Uch og‘ayni” romanida insonning urushdan keyingi davrdagi ruhiy holati chuqur psixologik va ijtimoiy tahlillar orqali mahorat bilan ochib beriladi. Romanda psixologik tasvir orqali urushdan keyingi inson hayotining ma‘nisizligi, yashash va o‘lim o‘rtasidagi noaniqligi ifodalanadi. Roman qahramonlari go‘yo o‘z hayotlariga begonadek, kelajakning ham ularga qizig‘i yo‘qdek ifodalanadi. O‘ta yengil va maishiy hayot ularning turmush kundaligiga aylangan. Ular faqat bugun uchun yashaydi: sharob totib, o‘tgan kunni unutishga intiladilar. Ertangi kun – ular uchun noma‘lum va o‘ta mavhumdir. Bunday tasvirni romanning faol personajlaridan biri frau Zalevski nutqida shunday ifodalanadi: *“Merkwürdige Menschen seid ihr jungen Leute alle miteinander. Die Vergangenheit haßt ihr, die Gegenwart verachtet ihr, und die Zukunft ist euch gleichgültig. Wie soll das nur ein gutes Ende nehmen!”*<sup>21</sup>

– *Hozirgi yoshlarga hayronman. O‘tmish sizlarga yoqmaydi, bugungi kundan nafratlanasiz, kelajak bilan ishingiz yo‘q. Oxiri baxayr bo‘lsin-da ishqilib.”*<sup>22</sup>

Bu jumla bir qarashda oddiy g‘amgin mulohaza sifatida ko‘rinsa-da, aslida bu fikr XX asrning birinchi yarmi Yevropa jamiyatidagi ruhiy va ijtimoiy inqiroz holatini ifodalaydi. Urush dahshatlarini ko‘rgan avlodlari va urushdan keyingi yoshlar

<sup>20</sup> Шухрат. Олтин зангламас. Роман. – Тошкент: Фафур Фулом, 2021. – Б. 20-21.

<sup>21</sup> Remarque, Erich Maria. Drei Kameraden. Roman. Kiepenheuer & Witsch. 1991. – P. 215-216.

<sup>22</sup> Remark E.M. Uch og‘ayni. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2022. – B. 193.

oʻrtasidagi dunyoqarashlar ziddiyati ayni shu nuqtada oʻzining yaqqol ifodasini topadi. Jumladagi uchlik konstruksiya (“oʻtmish”, “bugun” va “kelajak”) – psixologik, maʼnaviy va ijtimoiy boʻshliq holatini bildiradi. Inson oʻz hayotining uch zamonida ham oʻzini topolmaydi. Oʻtmish – urush, qon, yoʻqotishlar davri. Shuning uchun u bu avlodga yoqmaydi. Hozirgi kun – inqiroz, ishsizlik, qaygʻu, hayotiy maʼnisizlik. Shu bois, undan nafratlanishadi. Kelajak esa – oʻta mavhum va nomaʼlum, kechasidan va bugunidan hafsalasi pir boʻlgan kishi uchun unga ishonch yoʻq. Remarkning qahramonlari absurd falsafasi uchun xizmat qilmasa-da, ammo ulardagi ruhiy holat ekzistensial falsafa bilan hamohang. Professor Qozoqboy Yoʻldoshevning absurd xususida aytgan taʼrifi Remarkning “yoʻqotilgan avlod” odami obrazi haqidagi tasavvurlarini toʻldiradi: “Absurd – kechagi kundan koʻngli qolgan, bugunidan yuz oʻgʻirgan, ertadan umid qilmaydigan Botish odamining koʻngil holati.”<sup>23</sup> Bunday holat Remark ijodida koʻp uchraydigan “yoʻqotilgan avlod” motivi bilan bogʻliq.

Shuhratning “Oltin zanglamas” va Remarkning “Uch ogʻayni” romanlari inson ruhiyatini badiiy tadqiq etishda zamonaviy adabiyotning ikki muhim namunasi sifatida oʻzaro mushtaraklikka ega. Ularning har ikkisida: a) psixologik tasvir ichki kechinmalar orqali beriladi; b) nutq shakllari – ichki monolog, dialog, qahramon va muallif nutqlari – shaxs va jamiyat oʻrtasidagi ziddiyatni ochadi; d) tasodif kategoriyasi inson taqdirining noaniqligini ochib beradi; e) urush va urushdan keyingi davr inson ruhiyatida chuqur salbiy iz qoldirgan. Bu jihatlar nafaqat badiiy tajriba sifatida, balki XX asr adabiyotidagi umumiy psixologik tafakkur evolyutsiyasining koʻzgusi sifatida ham muhimdir.

## XULOSA

1. Nemis adabiyotida urush mavzusi insoniyatning universal fojiviy tajribasi sifatida talqin qilinib, individual ruhiy tanazzul, vijdon sinovi va ijtimoiy-madaniy inqiroz darajasida ochib beriladi. Oʻzbek adabiyotida esa bu mavzu tarixiy xotira va milliy tafakkurni mustahkamlash, vatanparvarlik, fidoyilik va sabr-toqat mezonida insoniy fazilatlarini namoyon qilishga qaratiladi. Har ikkala adabiyotda urush nafaqat tarixiy jarayon, balki shaxs va jamiyat ongiga taʼsir etuvchi chuqur ijtimoiy-falsafiy tajriba sifatida yoritiladi. Zamonaviy oʻzbek nasrida yetakchi qahramon jamiyat orzu qilayotgan ideal inson – maʼrifatli, halol, vijdoni pok va haqiqatparast shaxs sifatida gavdalanadi. Nemis romanlarida esa qahramon odatda urushning ruhiy-psixologik oqibatlarini oʻzida mujassam etgan fojiviy individ sifatida tasvirlanadi.

2. Oʻzbek va nemis adabiyotida urush mavzusiga bagʻishlangan romanlar kompozitsion qurilishi, syujet dinamikasi va obrazlar tizimi bilan farqlansa-da, ularning badiiy-estetik mohiyati bir nuqtada – inson taqdiri va tarixiy falokat oʻrtasidagi murakkab ziddiyatlarni yoritishda uygʻunlashadi. Har ikkala adabiy makonda urush dastlab epik koʻlam va tarixiy kontekstda tasvirlangan boʻlsa, keyingi bosqichlarda realistik, psixologik, post-totalitar va ekzistensial rakurslarda chuqurlashib boradi. Shu jarayonda oʻzbek romanlari xalq fidoyiligi, ijtimoiy tafovutlar, sabr-toqat va tarixiy adolatga intilish motivlarini ilgari surib, milliy ong va xotirani mustahkamlashga xizmat qilsa, nemis romanlari urush fenomenini ruhiy

---

<sup>23</sup> Ўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – Б. 164.

tanazzul, axloqiy zaiflik va ijtimoiy begonalashuv orqali estetik-falsafiy talqin darajasiga ko'taradi. Demak, ikkala adabiy tajriba turli yo'nalishlarda rivojlangan bo'lsa-da, umumiy maqsad urushning inson va jamiyatga ko'rsatgan halokatli ta'sirini badiiy idrok etishdir.

3. Urush mavzusida yozilgan romanlarda tasodif kategoriyasi oddiy voqeani burib yuboruvchi epizod sifatida emas, balki syujetning ichki dramatik mexanizmini harakatlantiruvchi, qahramon taqdirini keskin o'zgartiruvchi va asar kompozitsiyasida falsafiy-estetik zarurat darajasiga ko'tarilgan universal badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Tasodif ko'pincha peripetiya bilan uzviy bog'lanib, voqealar rivojida yangi bosqichni boshlab beradigan burilish nuqtasiga aylanadi.

4. Xronotop nuqtayi nazaridan tasodif makon va zamonning kutilmagan o'zgarishini ta'minlaydi, tinch hayotdan urush makoniga yoki aksincha, urush xotiralaridan bugungi zamonga keskin ruhiy "ko'chish"larni yuzaga keltiradi. Qadimgi eposlardan zamonaviy urush romanlarigacha bo'lgan adabiyot tarixida tasodifning bunday vazifalari davomiylik kasb etib, har bir davrning estetik mezonlari va falsafiy qarashlariga mos tarzda yangicha talqin bilan boyib kelgan. Natijada, tasodif urush voqearini faqat qiziqarli qilish uchun qo'llaniladigan hodisa emas, balki inson va tarix o'rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni, taqdir va irodaning murakkab aloqalarini ochib beruvchi, estetik, psixologik va ijtimoiy mazmunlarni birlashtirgan markaziy badiiy-estetik kategoriya sifatida qaraladi.

5. Tasodif badiiy syujetning eng muhim poetik mexanizmlaridan biri sifatida kutilmagan burilishlarni yuzaga chiqaradi va qahramon ruhiyatini sinovdan o'tkazadi. U dramatik voqealarning dinamikasini ta'minlab, qahramon xarakterini ochishga, uning ma'naviy-psixologik qiyofasini teranlashtirishga xizmat qiladi. Shu jarayonda psixologizm ichki monolog va sezgi tasvirlari vositasida tasodifiy hodisalarning ruhiy oqibatlarini yoritadi.

6. Shuhrat va Remark ijodida tasodif turlicha madaniy-tarixiy kontekstlarda qo'llansa-da, uning badiiy vazifasi bir maqsadga yo'naltirilgan: inson va jamiyat o'rtasidagi ziddiyatlarni dramatik yoritish. Shuhrat tasodifiy tugunlarni inson halolligi, sobitligi va adolatning abadiyligini ko'rsatish vositasi sifatida ishlatib, Remark tasodifiy burilishlar orqali urushdan keyingi avlodning ruhiy sindirilishi, umidsizligi va fojiaiy taqdirini ochadi. Demak, tasodif kategoriyasi har ikki adib ijodida badiiy tafakkurning chuqur estetik-falsafiy vositasiga ko'tarilib, syujetni jonlantirish, qahramon ruhiyatini ochish va mualliflik g'oyasini ta'sirchan ifodalashning samarali poetik mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

7. Remark tasodifiy hodisalarni urushdan keyingi avlod fojiaiy taqdirini yoritish uchun ishlatadi. Robertning Patrisiya bilan tasodifiy uchrashuvi dastlab unga qisqa muddatli baxtli lahzalarni baxsh etsa-da, keyinchalik uning sil kasaliga chalilib, vafot etishi va Gotfridning ijtimoiy zo'ravonlik ta'sirida qurbon bo'lishi uning barcha orzularini barbod qiladi. Bu bilan muallif tasodifni insoniyatning beqarorligi va hayotning absurdlashuvini ifodalovchi estetik vosita sifatida talqin qiladi. Demak, Remark uchun tasodif hayotiy beqarorlik va fojiaiy yakunni anglatib, muallif uni psixologizm bilan uyg'unlashtirib, obrazlarning ichki va tashqi hayotini chuqur ochishga erishadi. Natijada tasodifiylik adabiyotda qahramon ruhiyatini jonli va ko'p qatlamli tasvirlashga xizmat qiluvchi muhim estetik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

8. Shuhrat romanida kutilmagan uchrashuvlar, siyosiy fitna va tuhmatlar qahramon hayotini sinov maydoniga aylantiradi. Qodirning atlas ko‘ylakli qiz bilan bexosdan uchrashuvi uning ruhiyatida sevgi va ma‘naviy uyg‘onishni boshlab beradi; Sodiqning bo‘hton bilan qamalishi esa uning halolligi, vijdoniy sobitligi va insoniy sha‘nini yanada yorqinroq ochib beradi. Shuhrat uchun tasodif ezgulik, halollik va ma‘naviy barqarorlikni nurlantiruvchi kuchdir, ya‘ni tasodifiylik dramatik burilish orqali qahramonning ijobiy fazilatlarini teranlashtiradi.

9. “Oltin zanglamas” va “Uch og‘ayni” romanlari qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, tasodifiy hodisalar syujet dinamikasini harakatlantiruvchi va qahramonlarning ruhiy portretini ochib beruvchi asosiy badiiy kategoriya bo‘lib xizmat qiladi. Shuhrat va Remark turli tarixiy-madaniy sharoitlarda yashab ijod qilgan bo‘lsalar-da, tasodif kategoriyasini syujetning markaziy mexanizmlaridan biri sifatida qo‘llashda umumiylik mavjud. Biroq talqindagi tafovutlar sezilarli: Shuhratda tasodif insoniy g‘urur, umid va ezgulikni mustahkamlashga xizmat qilsa, Remarkda ayni kategoriya hayotiy beqarorlik, yo‘qotish va fojiaiy yakunning ramzi sifatida qo‘llanadi. Har ikkala muallif tasodif orqali qahramonlarning ichki kechinmalarini teran ochadi va obrazlarni hayotiy haqiqatga yaqinlashtiradi.

10. Tasodif va psixologizm uyg‘unligi bu ikki roman poetikasida qahramonlarning ichki va tashqi hayotini yaxlit ko‘rsatishga, shaxs va davr ziddiyatlarini teran badiiy-estetik darajada yoritishga xizmat qilgan. Shuhratda tasodif halollik va ma‘naviy sobitlikni tasdiqlovchi dramatik vosita bo‘lsa, Remarkda esa insoniyatning fojiaiy ekzistensial tajribasini ifodalovchi estetik prinsip darajasiga ko‘tarilgan.

**SCIENTIFIC COUNCIL PhD. 03/2025.27.12.Fil.39.01 ON AWARDING  
SCIENTIFIC DEGREES AT TURON UNIVERSITY**

---

**ALISHER NAVO‘I TASHKENT STATE UNIVERSITY OF UZBEK  
LANGUAGE AND LITERATURE**

**MURTAZAEV ELYOR NIZOMIDDINOVICH**

**TYPOLICAL REPRESENTATION OF THE ATMOSPHERE OF  
CHANCE AND PSYCHOLOGICAL SITUATIONS IN THE NOVEL GENRE**

(On the example of the novels of Erich Maria Remarque and Shuhrat)

**10.00.06 – Comparative Literary Studies, Contrastive Linguistics and  
Translation Studies**

**DISSERTATION ABSTRACT  
of the Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences**

**Karshi – 2026**

**The theme of dissertation for doctor of philosophy (PhD) was registered by the Supreme Attestation Commission at the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan under number № B.2024.2.PhD/Fil4875**

The dissertation has been carried out at the Alisher Navo'i Tashkent State University of Uzbek Language and Literature.

The abstract of the dissertation in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) is placed on the website of the Scientific Council ([www.turon.uz](http://www.turon.uz)) and Information-educational portal "Ziyonet" ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Scientific supervisor:** **Kholiqov Bahodir Aliqulovich**  
Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences,  
Associate Professor

**Official opponents:** **Nuriddinov Shahobiddin Babayarovich**  
Doctor of Philological Sciences, Professor  
**Ma'diyeva Adiba Dovudovna**  
Doctor of Philosophy (PhD) in philological sciences

**Leading organization:** **Gulistan State University**

The defense of dissertation will take place on "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026 at \_\_\_\_\_ at the meeting of the Scientific Council No. PhD.03/2025.27.12.Fil.39.01 at Turon University in Qarshi. (Address: 1/14 Nasaf Street, Qarshi 180100, Uzbekistan, Phone: +998 77 040-00-25, Fax: +998 75 220-00-25, E-mail: [turonuniversiteti.uz](mailto:turonuniversiteti.uz)).

The dissertation can be consulted at the Information and Resource Center of Turon University (registered under No. \_\_\_\_). (Address: 1/14 Nasaf Street, Qarshi 180100, Uzbekistan, Phone: +998 77 040-00-25, Fax: +998 75 220-00-25, E-mail: [turonuniversiteti.uz](mailto:turonuniversiteti.uz)).

The dissertation abstract was distributed on "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_, 2026

(Protocol at the register № \_\_\_\_ of "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ 2026).

**N.N.Shodmonov**  
Chairman of the Scientific Council  
awarding scientific degrees, Doctor of  
Philological Sciences, Professor

**I.B.Nurmurotov**  
Scientific Secretary of the Scientific  
Council awarding scientific degrees,  
Doctor of Philosophy (PhD) in Philological  
Sciences, Associate Professor

**M.D.Danieva**  
Chairman of the Scientific Seminar at the  
Scientific Council awarding scientific  
degrees, Doctor of Philological Sciences,  
Professor

## INTRODUCTION (abstract of the PhD thesis)

**The topicality and relevance of the dissertation.** In twentieth-century world novelistic literature, the theme of war was interpreted as one of the most significant and tragic experiences in human history. In artistic thought, war narratives provided broad aesthetic opportunities not only to reinterpret historical reality but also to illuminate the sufferings of the human inner world, spiritual trials, and turning points of fate. In particular, random events and their influence on the psychology of characters rose to the level of an important artistic category in the poetics of war novels. The role of chance in plot structures, unexpected turns in the development of events, and the revelation of the human psyche through tragic resolutions became common methodological and typological criteria in world literature.

In world literature, the theme of war is interpreted as one of the most tragic pages of human history, in which accidental situations emerge as a distinct artistic device. In German novels, in particular, chance is elevated to the level of a literary-philosophical category that expresses the instability of human destiny and the complex psychological landscape of postwar society. Especially in the works of Erich Maria Remarque, chance aesthetically reveals life's uncertainty and the helplessness of human beings in the face of fate. In the novel *Three Comrades*, it functions as a central artistic mechanism for understanding the sufferings of the postwar generation.

In Uzbek novelistic literature, the theme of war has been shaped as an artistically generalized expression of national historical reality and human destiny. In these novels, accidental events function as one of the main driving forces of the plot, serving to reveal the moral and spiritual world of the protagonist through unexpected turns in their lives. Shuhrat's novel *Gold Does Not Rust* (*Oltin zanglamas*) belongs to this artistic tradition, in which random events are interpreted as being closely interconnected with human life and socio-political processes. Indeed, the idea that "as long as literature, art, and culture live, the nation and the people – indeed, all humanity – will live eternally"<sup>1</sup> is not expressed without reason. Literature is one of the most important social phenomena that shapes the spiritual and moral world of the individual, preserves historical memory, and unites a nation. Uzbek and German novels devoted to the theme of war clearly demonstrate this truth.

Therefore, in both German and Uzbek war novels, chance acquires typological harmony in revealing the inner world of the characters and illuminating the moral and cultural contradictions of the era. This aspect, in turn, enhances the relevance of the present study and underscores its necessity in contemporary national literary scholarship.

This dissertation research serves, to a certain extent, to contribute to the implementation of the tasks outlined in the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-158 dated September 11, 2023, "On the Strategy 'Uzbekistan – 2030,'" the Decree No. PF-5847 dated August 8, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030," the Decree No. PF-6097 dated October 29, 2020, "On Approval of the

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017-yil 4-avgust

Concept for the Development of Science until 2030,” the Decree No. PF-6108 dated November 6, 2020, “On Measures for the Development of Education and Science in the New Period of Development of Uzbekistan”. It also serves the realization of the objectives set forth in the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-54 dated February 2, 2024, “On Additional Measures to Accelerate Reforms in the Education Sector,” as well as in the address delivered by the President of the Republic of Uzbekistan at the meeting with representatives of the creative intelligentsia on August 3, 2017, and the instructions given on May 20, 2020, during his visit to the Alley of Writers in Tashkent aimed at strengthening the impact of literature, along with other relevant regulatory and legal documents pertaining to this sphere.

**Compliance of the research with the priorities of the development of science and technology of the republic.** The dissertation research was conducted in accordance with the priority area of the development of science and technology of the Republic of Uzbekistan entitled “*The Formation of a System of Innovative Ideas and Ways of Their Implementation in the Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual, and Educational Development of an Information Society and a Democratic State.*”

**The degree to which the problem has been studied.** In literary studies, the themes of war, chance, sharp plot turns, and their integration with psychologism have been examined in world literary scholarship in the works on literary theory and criticism by scholars such as Aristotle, L.I. Timofeyev, V. Khalizev, Yu. Borev, M.M. Bakhtin, G.N. Pospelov, N.G. Chernyshevsky, A.A. Potebnya, M. Matveyev, T. Riggs and A. Vernon.<sup>2</sup>

In German literary scholarship, the phenomenon of war—particularly the existential and psychological condition of the twentieth-century individual in the works of Remarque is theoretically examined in the studies of H. Rüter, G. Lukács, R. Marton, T. Schneider, and B. Murdoch<sup>3</sup>.

In Uzbek literary studies, theoretical observations addressing these issues can be found in the works of A. Fitrat, I. Sul-ton, B. Sarimsoqov, D. Quronov, Q. Yoldosh,

---

<sup>2</sup> Арасту. Поэтика. Ахлоқи кабир. Риторика. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2024; Литературный энциклопедический словарь. – Москва: Советская энциклопедия, 1987; Словарь литературоведческих терминов. Редакторы-составители Л.И. Тимофеев и С.В. Тураев. – Москва: Просвещение, 1974; Лихачев Д.С. Текстология: На материалах русской литературы X-XVII веков. – Л., 1983; Хализев В. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1994; Боров Ю. Эстетика. – Москва: Издательство политической литературы, 1981; Шелли П.Б. Фарб шамоли. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014; Пospelov Г.Н. Теория литературы. – Москва: Высшая школа, 1978; Чернышевский Н.Г. Статьи по эстетике. – М., 1938; Потebня А.А. Эстетика и поэтика. – М.: Искусство, 1976; Храпченко М.Б. Творческая индивидуальность писателя и развитие литературы. – Москва: Наука, 1970; Есин А.Б. Психологизм русской классической литературы. – Москва: 1988; Бахтин М.М. Проблемы поэтики Достоевского. – Москва: Наука, 1979; Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. – Москва: Наука, 1979; Бахтин М. Романда замон ва хронотоп шакллари. – Тошкент: Академнашр, 2015; Browne L. Coincidence in Fiction and Literature. Berlin, 1996; Puskar J. Here is an informal briefing on chance in literature. 1998; Georg Lukács. The Theory of The Novel. The MIT Press Cambridge, Massachusetts. 1977; Матвеев М. А. Принципы формирования поэтики ранних произведений Э.М. Ремарка. Дисс... канд. филол. наук. – Санкт-Петербург, 2015; Riggs T. The Literature of War. – Detroit: St. James, 2012; Vernon A. War. Critical Insights. – Ipswich: Salem, 2013.

<sup>3</sup> Rüter H. Erich Maria Remarque: Im Westen nichts Neues. Ein Bestseller der Kriegsliteratur im Kontext. – Paderborn: Schöningh, 1980; Bevan D. Literature and War. – Amsterdam: Rodopi, 1989; Marton R. Mein Freund Boni: Erinnerungen an Erich Maria Remarque. – Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1993. Schneider T. Die andere Liebe. Anmerkungen zu den Erzählungen und Essays von Erich Maria Remarque // Herbstfahrt eines Phantasten: Erzählungen und Essays, edited by Thomas F. Schneider. – Cologne: Kiepenheuer und Witsch, 2001; Murdoch B. The novels of Erich Maria Remarque: sparks of life. – Rochester: Camden House, 2006.

U.Juraqulov, U.Oljaboev, H.Karimov, I.Yoqubov, U.Hamdami, and others.<sup>4</sup> In addition, studies devoted to the creative works of Shuhrat and Erich Maria Remarque and to their novels analyze war and its consequences, the spirit of the era, and psychological states. In particular, the works of S.Mirvaliyev, H.Yoqubov, M.Qoshjonov, N.Karimov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, I.Gafurov, D.Toraev, Y.Solijonov, Q.Qahramonov, Z.Pardaeva, A.Azimov, Sh.Doniyarova, M.Yadgarova, and N.Soatova<sup>5</sup> are devoted to the study of Shuhrat's works, while the creative legacy of E.M.Remarque has been examined to varying degrees in scholarly articles and media publications by R.Qo'chqor, Y.Egamova, Sh.Karimov, S.Saidmurodov, and S.Olimjonov.<sup>6</sup>

However, in Uzbek literary scholarship, the typological correlation between the atmosphere of chance and psychological situations in the novels of Shuhrat and Remarque has not been the subject of a special, systematic study.

